
2022 yilda soliq tushumlari va 2023 yildan soliq ma'murchiligiga joriy etiladigan o'zgarishlar haqida

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, jonajon O'zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo'ymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida, xususan, soliq tizimida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham soliq tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim o'zgarishlarni belgilab berdi.

Xususan, mol-mulk va yer soliqlarining bir qismi mahallaning o'zida qolishi kutilayotgan—"Mahalla budjeti" tizimi joriy etilmoqda. Shuningdek, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab turli soliq stavkalari qo'llanilishi ko'zda tutilmoqda. Misol uchun, sharoiti eng og'ir bo'lgan respublikadagi 20 ta tuman uchun aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig'i, ijtimoiy soliq stavkalarini 1 foiz miqdorida belgilanmoqda.

2023 yil 1 yanvardan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (QQS) 15%dan 12%gacha pasaytirildi. Shu sanadan barcha realizatsiyalarda QQS stavkasi 12% ko'rsatilishi lozim.

Qo'shilgan qiymat solig'i salbiy farq summasini qoplash yuzasidan kameral soliq tekshiruvini o'tkazish muddati 60 kundan 30 kungacha qisqartirildi. Shu bilan birga QQS to'lovchining guvohnomasi vaqtincha to'xtatilganda hisobga olinmagan QQS summasi keyinchalik guvohnomaning amal qilishi tiklanganida, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'langan summa soliq to'lovchida va uning xaridorlarida guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilgan sanadan hisobga olinadi.

Aylanmadan olinadigan soliqning amaldagi 4% dan 25% gacha belgilangan stavkalari unifikatsiya qilinib, 4% miqdoridagi yagona stavka belgilandi. Bunda ayrim soliq to'lovchilar uchun Soliq kodeksida belgilangan 3, 2 va 1 foizli stavkalar saqlanib qoldi.

Tadbirkorlik subyektlariga aylanmalaridan kelib chiqib soliq to'lashda yengilliklar berildi. Xususan, tadbirkorlar ixtiyoriy asosda jami daromad summasi 500 mln so'mdan oshmaganda yiliga 20 mln so'm, 500 mln so'mdan oshganda - yiliga 30 mln so'm qat'iy belgilangan summani to'lashga o'tishni tanlashga haqli. Bunda yillik summa teng ulushlarda har oyda, kalendar oydan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay to'lanadi. Mazkur soliqni to'lashga o'tish uchun keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin, 2023-yil 1-yanvardan o'tish uchun esa 25-yanvardan kechiktirmay xabarnoma taqdim etishlari lozim. Yangi tashkil etilgan soliq to'lovchilar davlat ro'yxatidan o'tishda qat'iy belgilangan summada soliq to'lashni tanlashga haqli.

Qat'iy belgilangan summada soliq to'lovchilarning dividendlar tarzida olinadigan daromadlariga soliq solinmaydi va aylanmadan olinadigan soliq hisobotini taqdim etmaydi.

2022 yil 1 sentabrdan foyda solig'ini to'lashga o'tgan jami daromadi 10 mlrd so'mgacha bo'lgan soliq to'lovchilarga 2023 yil 7,5% stavkada bir yil davomida, jami daromadi 10 mlrd so'mdan oshganlarga ikki yil davomida 7,5% stavkada foyda solig'ini to'lash huquqi berilmoqda.

Bundan tashqari, biznesga soliq yukini kamaytirish maqsadida 2023 yil 1 yanvardan boshlab QQS stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirilmoqda.

Shu bilan birga Prezidentimiz Murojaatnomada davlat idoralari tadbirkorlarga¹ ² servis xizmati ko'rsatishi lozimligi va yangi yilda mazkur jarayon bo'yicha baholash tizimi joriy etilishini aytib o'tdi.

Ayni kunlarda O'zbekiston tuman davlat soliq inspeksiyasi ma'sul hodimlari tomonidan tadbirkorlarga bu borada tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek ularga, qa'tiy belgilangan summada soliq to'lashning afzallik va foydali tomonlari ko'rsatilib, qanday qilib soliq to'lashning bunday tartibiga o'tish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berilmoqda.

Biz, soliq idoralari xodimlari tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlashga, soliq qonunchiligiga oid zarur yordamlarni ko'rsatishga hamisha tayyormiz. Soliq tizimiga oid qo'shimcha savollar bo'lsa, "Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash" sho'basi ishonch telefoniga (73-539-18-06) qo'ng'iroq qilishingiz mumkin. Murojaatingiz qisqa fursatlarda o'rganib chiqiladi va javob beriladi.

"Davlat soliq xizmati - insofli soliq to'lovchining ishonchli hamkori" tamoyili doirasida siz bilan hamkorlikka tayyormiz!

O'zbekiston tumani davlat soliq inspeksiyasi

2023-01-11 14:10:04